O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 17 - iyuldagi 289908 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Andijon shahri, Barkamol MFY hududida mavjud poliklinika binosini buzib o‘rniga “1-5-qavatlari qavatlari diagnostika markazi 6-qavati texnik qavat” bino-inshootlari qurilishi.
Buyurtmachi: SAXOVAT-IMONA MCHJ
Bosh loyihachi: "ME`MOR ARCH CONCEPT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: SAXOVAT-IMONA MChJ
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 133049

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining 17.01 .2026-yildagi №245789572-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 13.05.2026-yildagi №1703-1703401-266972-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi tomonidan 04.06.2026-yilda tasdiqlangan va bosh loyihachi bilan kelishilgan 2026-yildagi loyixalashtirish topshirig'i.

1.4. Loyihani ishlab chiqishda foydalanilgan topografik rejani “Topografiya” ma’lumotlar bazasida qayd etilgan yagona ro‘yxatga olish raqami №112709.

1.5. Buyurtmachi hamda bosh loyihachi o`rtasidagi 03.06.2026-yilda tuzilgan №22/26-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 26.06.2026-yildagi №305164763-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari reestr raqami №226062571-sonli «O’ZGASHKLITI » MChJ tomonidan 30.06.2026-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Qurilish-iqlimiy zonasi - IV;

Me’yoriy qor yuki - 0.50 kg/m2;

Me’yoriy shamol yuk - 0.38 kg/m2;

Yer osti suvlari yer yuzasidan - 12,0 metrdan ortiq chuqurlikda yotishi mumkin;

Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitining turi – II;

Hududning zilzilabardoshlik ko‘rsatkichi - 8 ball.

3.2. Bosh reja:

Loyihaviy diagnostika markazi Andijon viloyati, Andijon shahar, Barkamol MFY hududida joylashgan. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: shimol tomondan —qo’shni hududi bilan chegaralangan, sharq tomondan — qo‘shni hududi bilan chegaralangan, janub tomondan — yo'li bilan chegaralangan, g’arb tomondan — yo'li bilan chegaralangan. Bosh rejada loyihaviy diagnostika markazi binosi qurilishi, avtoturargoh va YOXB yashigi ko’zda tutilgan. Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan. Obodonlashtirish ishlarida loyihaviy bino atrofi bo’ylab va yong’in-qutqaruv mashinalari uchun bino atrofi bo’ylab sement-beton qoplama, ajratilgan yer uchastkasi va unga tutash hududda 543.05 m2 maydonda maysa o’stirish ishlari, daraxt va gullar o’tqazish ishlari hamda chiqindi idishlari ko’zda tutilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlar:

Hududning umumiy maydoni - 900.0 m2/100%;

Hududning umumiy qurilish maydoni - 719.96 m2/80.0 %;

Yo’llar, yo’laklar maydoni - 97.04 m2/10.78%;

Ko’kalamzor maydoni (ajratilgan yer uchastkasida) - 83.0 m2/9.22%.

Ko’kalamzor maydoni (ajratilgan yer uchastkasiga tutash hududda) - 460.05 m2/51.12%.

3.3. Yong’in xavfsizligi:

Loyiha hujjatlarida qabul qilingan yong‘in xavfsizligi tadbirlarining qisqacha tavsifi.

Loyiha topshirig‘iga va bosh rejaga muvofiq 5 qavatli, yerto‘la va texnik qavati bo‘lgan tibbiyot markazi binosi qurilishi rejalashtirilgan. Binolar to‘rtburchak shaklda bo‘lib, rejadagi o‘lchamlari 16.0x43.5 m, Binolar balandligi +18,0 m, (yer sathidan eng yuqori qavatning ochiladigan derazasi (eshigi)ning pastki chegarasigacha).

Ma’lumot uchun:

Binoning balandligi yuqori texnik qavatni hisobga olmagan holda yuqori qavatning joylashish balandligi bilan belgilanadi.

Qavatning joylashish balandligi yong‘in o‘chirish mashinalari uchun o‘tish yo‘li sathidan tashqi devordagi ochiladigan deraza (eshik) ning pastki chegarasigacha bo‘lgan masofa bilan belgilanadi (ShNQ 2.01.02-04, 5.13-b.).

Konstruksiyalarning chegaraviy holatiga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II; konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – S0; funksional yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – F3.4 (davolash-profilaktika muassasi).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

Binolar orasidagi yong‘inga qarshi oraliq masofa, ularga atrofidagi harakatlanish yo‘llari me’yorlar talablarida; evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablarida; binoning tashqi (issiqlik izolyatsiyasi mineraltolali bazalt plitalari, ustki qatlami travertinga o‘xshash

dekorativ pardoz qatlami) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar bilan ishlov berilishi; yerto‘la qavatidan chiqish yo‘li bevosita tashqariga; yerto‘la qavatda oyna xandaklar (okna priyamki);
yuqori qavatlardan evakuatsiya L1 turdagi zina kataklar orqali; qavatlar zina kataklardan evakuatsiya yo‘nalishida ochiladigan va o‘zi bevosita yopiladigan moslama (dovodchik) bilan jixozlangan eshiklar orqali ajratilgan; tomga chiqish ichki umumiy zina katagi orqali, tomdagi balandlik farqlarida vertikal narvonzinapoyalar; tomdagi yuk ko‘taruvchi konstruksiyalar (stropila, balka va rama) metalldan; qavatlar yo‘laklarining uzunligi 42 m dan oshmaydigan 2-tipdagi EI 45 yong‘inga qarshi pardevorlar bilan ajratilishi; evakuatsiya yo‘llardagi va zina
kataklardagi eshiklar o‘zi bevosita yopiladigan moslama (dovodchik) bilan jixozlanishi; lift shaxtasi eshiklarining olovbardoshlik darajasi EI 30; xar bir qavatda me’yoriy suv sarfiga ega yong‘in o‘chirish kranlari, tik quvurlari yuqori qavatida xalqalangan; yong‘in o‘chirish kranlari shkaflarida birlamchi o‘t o‘chirgichlar; yerto‘la qavatda alohida xonada suv bosimini ko‘tarish maqsadida yong‘inga qarshi nasoslar (2ta, HYRO MX 2/1 CR 15-07, Q=47,0 m/h, H=94,0 m, P=5,50 kVt), undan chiqish bevosita tashqariga; har bir xonasida avtomatik yong‘in signalizatsiyasi (manzilli); qavatlarda yong‘in vaqtida ovozli xabar berish va evakuatsiyani boshqarish tizimi; evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo; tashqi yong‘in o‘chirish maqsadi uchun hududda yong‘in gidranti (1 dona).

3.4. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihaviy “Diagnostika markazi” binosi – yerto’lali, 5 qavatli, 6-qavati texnik qavat.

Bino yerto’la, 1-5-qavatlari va texnik qavatlarining poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.34 m ni tashkil etadi.

Bino yerto’la qismida dezinfeksiya, sterelizatsiya xonasi, radioaktiv moddalar xonasi, omborlar, compressor xonasi, zina, yo’lak, lift va sanitar tugunlar mavjud.

Bino 1-qavatida muolaja xonasi, registratura, stomotolog xonasi, LOR xonasi, UZI, EEG va EKG xonalari, terapevt xonasi, oftalmolog xonasi, nevrolog xonasi, fizioterapiya xonasi, qabulxona, bosh shifokor xonasi, sanitar tugunlar, yo’lak zina va liftlar mavjud.

Bino 2-3-4-qavatlarida shifokor xonalari, sanitar tugunlar, yo’lak, zina va liftdan iborat.

Bino 5-qavatida shifokor xonalari, sanitar tugunlar, yo’lak, zina va liftdan iborat.

Bino 6-qavati texnik qavat xisoblanadi.

Bino texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Bino qurilish maydoni - 719.96 m2;

Bino umumiy maydoni – 4 843.49 m2;

Bino qurilish hajmi – 21 166.82 m3.

- Devorlar – D600 markali gazoblok M50 markali sement-qum qorishma orqali teriladi, qalinligi 200mm.
- Pardevorlar - D600 markali gazoblok M50 markali sement-qum qorishma orqali teriladi, qalinligi 200 va 120mm dan iborat.
- Ichki pardozlash ishlari - devor va shiftlar yuqori sifatli vodoemulsiya bo’yog‘i bilan bo‘yash, zinapoyalarda devorlar pastki qismi 10-15 sm o’lchamda keramogranit bilan ximoyalanadi, xojatxona devorlari sopol plitka bilan pardozlash ko‘zda tutilgan.

- Pollar - xonalar poli keramogranit, muolaja xonasi poli relin, xojatxona va yuvinish xonalarda keramik plitkalardan.
- Zinapoya marshlarining pog‘onalari va maydonchalari – keramogranit qoplanadi.
Xonalar maydoni va tarkibi ShNQ 2.08.02-09* «Jamoat binolari va inshootlari» talablariga mos keladi.
Tashqi pardozlash ishlari:
- Devorlar bazalt tolali isiqlik himoya qatlami (PPJ) bilan qoplanib ustidan plastik tolali to‘r bilan suvoq qilinadi. Tashqi pardozlashda zamonaviy pardozlash materiallaridan foydalanilgan.
- Sokol (poypesh) qismi keramogranit qoplash, devorlar bazalt tolali issiqlik himoya qatlami qoplanadi, ustidan plastik tolali to‘r qoplanib yuqori sifatli suvoq qilinish, tashqi pardozlashda zamonaviy pardozlashda materiallaridan foydalanish.
- derazalar – PVXdan ikki qatlamli oynali energotejamkor, ochilishi murakkab mexanizmli;
- eshik kesaki va ramalari alyuminiy.
- vitrajlar – alyuminiy profilli “termomost”, oynalar ikki qatlamli, oynalar energiyatejamkor qoplamali o‘rnatish ko‘zda tutilgan.
- ichki derazaosti (podokonnik) – PVX dan.
- tashqi derazaosti (podokonnik) – ruxlangan po‘latdan (otsinkovaniy stal).
- eshiklar MDF, PVX rusumli va metal eshik o‘rnatish ko‘zda tutilgan.
Konstruktiv yechimlari - poydevor tuproqlari betonga sust agressiv deb baholanadi. Temir-beton konstruktsiyali portland tsementli qo'shimchalar va portland sementli va o'rtacha agressiv tsementning barcha markalarida quyilgan.
Ishchi chizmalar amaldagi qoidalar va standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan.
Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 «Zilzilaviy hududlarda qurilish»
3.1 jadvali 1.2.2 1-punkt bandi (b) qismiga mansub.
Bino hisobiy zilzilabardoshligi - 8 ball.
Poydevorlar – yaxlit temirbeton plitalardan.
Balkalar - quyma temirbeton, o'lchami 400x500mm.
Orayopmalar - temirbeton plitalardan t=180mm.
Devorlari – quyma temirbeton va gazoblok qalinligi 200 mm.
Zinapoya - quyma temirbeton. Tom tuzilmalari – tekis tom (мягкая кровля).
Barcha metall konstruksiyalarni astar yordamida PF115 GOST 6465-76* emal bilan bo'yash kerak. GF-020 GOST 18186-79* 2 marta.
Tashqi devor atrofi to’shamasi(otmostka) - bino perimetri bo'ylab beton yo’lakcha rejalashtirilgan, kengligi 1200 mm, qalinligi 100 mm, nishabligi 3%.
Shu bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.
Ishchi loyihada:
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:
- Issiq suv ta’minoti elektr suv isitgichlardan va quyoshli suv isitish kollektorlaridan amalga oshiriladi.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha

talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`ni quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismi 50 qalinlikda mineral vata(bazalt) plita qoplash ko`zda tutilgan;
- Tom issiqlik qatlami – mineral vata(bazalt) plitadan, 100 mm qalinlikda;
- Poypesh izolyatsiyasi – ekstruziyalangan penopolistiroldan, 20 mm qalinlikda issiqlik himoya qatlami qoplanadi;
- Pol izolyatsiyasi – ekstruziyalangan penopolistiroldan, 50 mm qalinlikda issiqlik himoya qatlami yotqiziladi.
Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:
- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargoh tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama qoplash;
- binoning kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirish;
- pandus tutqichlari boshlanishida chaqiruv tugmasi;
- sirpanishga qarshi alyumin pol profili;
- zina ikki tomonida va orasida 2.50 m kenglikdan ortmagan masofada tutqichlar;
- eshiklar chekkasiga kontrast rangli lentalar re’jalashtirildi;
- kirish eshigidagi kontrast belgi, sariq doira d=200 mm;
- asosiy eshik yonida mnemonik diagramma;
- ko’zi ojizlar uchun ovozli ma’lumot beruvchi;
- devorga o’rnatilgan Brayl alifbosidagi axborot taxtasi;
- nogironlar aravachasini evakuatsiya qilish re’jasi;
- bino yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- yerto’la va 1-5-qavatlarda 1 donadan nogironligi bo’lgan shaxslar uchun maxsus xojatxona va boshqa ashyolar re’jalashtirildi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 13.05.2026-yildagi №1703-1703401-266972-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:
- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 05.06.2026-yildagi №03401233782-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” AJ ning 09.10.2025-yildagi №170-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Taqdim etilgan loyihalashtirish topshirig’ining 5 va 16-bandlariga asosan tashqi elektr tarmoqlari loyihaning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Issiqlik ta’minoti issiqlik nasoslaridan amalga oshiriladi. Isitish tizimi ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan, polipropilen va po‘lat quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida fankoyllar va elektr radiatorlar qo‘llanilgan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Ichimlik suvi, shaxar ichimlik suvi tarmogidan rejalashtirilgan. Issiq suv ta’minoti elektr suv isitgichlardan va quyoshli suv isitish kollektorlaridan amalga oshiriladi. Polipropilen quvur qo‘llanilgan. Ichki oqova suv tarmog‘i o‘z oqimi bilan oquvchi, PVX plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan.

Elektr ta’minoti:

Loyihada umumiy ishchi, yoritgichlari ko’zda tutilgan.

Umumiy hisoblangan quvvat -Pp =192.91 kVt

Umumiy hisoblangan tok -Ip =321.51 A

Umumiy ishchi yoritish LED yoritgichli yoritgichlar bilan ta'minlanadi. Yoritgichlar turini tanlash xonaning maqsadi va atrof -muhit xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Xonaning yoritilishi "ShNQ 2.04.17-2019" va "ShNQ 2.01 05-2024" qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq qabul qilingan.

Binoning umumiy elektr yoritgichlari alohida elektr yoritish shitidan taminlanadi. Ushbu shit AVR orqali tomga o'rnatilgan quyosh panellari orqali elektr tokiga ham ulunadi. Guruh tarqatish tarmog'i yoritish va kuch jixoz(rozetka) lari mis m.VVGng-LS simi bilan amalga oshiriladi va devorning suvoq qatlami ostida berkitilgan.

Guruh tarqatish tarmog'i yoritish va kuch jixoz(rozetka) lari mis m.VVGng-LS simi bilan amalga oshiriladi va devorning suvoq qatlami ostida berkitilgan Xonalarda va yo'laklarga o'rnatilgan kalitlar poldan 0.9 metr balandlikda o'rnatiladi. Bazi xollarda kalitning o'rnatilishi xonaning dizayniga qarab qulay balandlikda o'rnatiladi. Barcha yoritgichlar VVGng-LS-2x1.5 mm² kesimli simlar orqali tarqatish shitlariga ulanadi.

Energiyatejamkorlik:

Loyixalanayotgan bino tomida umumiy quvvati 25 kVt bo'lgan quyosh panellari ko'zda tutilgan.

Kuchsiz to’k:

Tizim yong'in signalizatorlarini boshqarish, signal paydo bo'lganda ogohlantirish berish imkonini beradi.

Yong'in signalizatorlari sifatida tutun detektorlari “Rubez” va qo'lda IPR ishlatiladi. Ularga tarmoq КСПВ 1x2x0,5мм² sim yordamida amalga oshiriladi. Kabellar shiftlarda monolit beton orasida polietilen quvurlarda o'rnatiladi.

O'rnatish joylari “Uskunalarni joylashtirish rejasi” da ko'rsatilgan.

Ushbu ob'ektda yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun “Grand-Magister” qurilmasida yong'in signalizatsiyasining birlashgan tizimi loyihalashtirilmoqda. Tizim yong'in signalizatorlarini boshqarish imkonini beradi, agar signal bo'lsa, boshqaruv paneli qurilmasiga, so'ngra chiziq bo'ylab CPS signalizatsiya qurilmasiga xabar yuboradi.

220 voltli o'zgaruvchan tok tarmog'idan signalizatsiya uskunalarini elektr ta'minoti. 220V quvvat qurilmaga rozetkasiz beriladi. Yong'in signalizatsiyasi uchun, loyiha 12V akkumulyator batareyasining zaxira quvvatini ta'minlaydi. 8a / soat.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 26.06.2026-yildagi №305164763-sonli xulosasi.

5.2. Ekspertiza jarayonida ekspert mutaxassislar tomonidan ShNQ 2.08.05-23 ning 28-bandi talabiga asosan loyihaning arxitektura yechimiga kiritilgan o’zgartirishlar buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal

xo‘jaligi bosh boshqarmasining 14.07.2026-yildagi №01/09-1006-son ma’lumotnomasiga asosan ma’qullandi.

5.3. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2026-yil 22-may kuni berilgan №01-02/03-8035-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **17 870 637 503** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **270 336 070** so'mga kamaytirilib,
17 600 301 433 so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **13 288 607 672** so'm
Asbob-uskunalar: **2 425 947 179** so'm
QQS: **1 885 746 582** so'm

6.1. Obyektning loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.

6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tirozlarni to'liq bartaraf etish lozim:

- obyekt bosh re’ja yechimi davlat ekologik ekspertiza markazi Andijon viloyati filialining 2026-yil 22-maydagi №01- 02/03-8035-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi talablari bajarilishi sharti bilan ma'qullandi.
- obyekt uchun ishlab chiqilgan ishchi loyiha hujjatlariga yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni inobatga olib, shuningdek Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosasi mazkur loyiha talablariga moslashtirish sharti bilan kelishish uchun tavsiya etiladi.

6.4. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan lozim.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.8. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 26.06.2026-yildagi №305164763-sonli xulosasida bosh re’ja yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi hamda arxitekturaviy yechimlari bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchub ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.10. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

6.11. Buyurtmachiga tanlov savdolarini o‘tkazish davrida – pudratchi tomonidan taklif etilgan narx - ofertani ShNQ 4.01.16-09 “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” 5-bob - Tanlov savdolarida qatnashishi uchun pudratchi tashkilotlari tomonidan qurilish bahosini joriy narxlarda aniqlash tartibi asosida aniqlanganligini nazorat qilish tavsiya etiladi.

6.12. Eslatma - mazkur xulosa quyidagilar uchun asos bo‘ladi:

- shaharsozlik hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;
- keyingi loyihalashtirish bosqichini ishlab chiqish;
- ob’ektni qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasidan ro‘yxatdan o‘tkazish;
- moliyalashtirishni amalga oshirish;

va lekin, boshlang‘ich bosqichdagi dastlabki baho tavsiya tariqasida berilganligi sababli pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlarining hajmi va qiymati bo'yicha buyurtmachi va pudratchi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'la olmaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Andijon shahri, Barkamol MFY hududida mavjud poliklinika binosini buzib o‘rniga “1-5-qavatlari qavatlari diagnostika markazi 6-qavati texnik qavat” bino-inshootlari qurilishi”, ob'ektini ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. Ishchi loyihaning smeta qismiga berilgan narx tavsiyaviy (prognoz) xarakterga ega bo‘lganligi sababli, qurilish shartnomasini tuzish, pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'la olmaydi. ShNQ 4.01.16-09 “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” 6-bob 4-band 3-xatboshiga asosan, tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi qabul qiladi.

7.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar

tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Egamov Javlon Naimjanovich, Axmedov Rustambek Xamidovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert

SOLIYEV JOXONGIR MARIPJON O‘G‘LI